

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

OTALIEVA ADILA RAXMETOVNA

**YOSH KARATECHILARNI YILLIK MASHG‘ULOT JARAYONLARINI
REJALASHTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

UO‘K: 796.853.26:015.2

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)

по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

on pedagogical science

Otalieva Adila Raxmetovna

Yosh karatechilarni yillik mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirish uslubiyati.....3

Оталиева Адила Рахметовна

Методы планирования годовых тренировочных процессов юных каратистов.....27

Otalieva Adila Rakhmetovna

Methods of planning the annual training processes of young karate technicians.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of Published works.....57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

OTALIEVA ADILA RAXMETOVNA

**YOSH KARATECHILARNI YILLIK MASHG‘ULOT JARAYONLARINI
REJALASHTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/Ped7600 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Raxmatov Bektosh Shomurod o‘g‘li pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	Kochkarov Atabek Axmatvayevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Rajabov G‘ulomjon Kurbanbaevich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79,717-27-27,faks:(0-370)717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “__” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d.(DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo sport amaliyotida, yuqori darajaga raqobatga ega karate musobaqalariga istiqbolli karatechilarni tayyorlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunday strategik an'anaga ustunlik berish, bugungi sport amaliyotida karate sport turidan kuniga 2-3 martadan o'tkaziladigan shiddatli mashg'ulotlar, uzoq davom etadigan musobaqa sikllarida ko'p takrorlanuvchi yuklamalarga chidamliligini oshirish, shu jumladan, jismoniy, psixofunksional va texnik-taktik imkoniyatlarni shakllantirishga aynan shu yosh bosqichidan boshlab urg'u berilishi hamda karatechilarni yillik mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish uslubiyatini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, karatechilarni yillik mashg'ulot sikllari asosida ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish, ularning individual imkoniyatlari va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda tayyorgarlikni optimallashtirish muhim metodik vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda umumjismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda, maxsus jismoniy, psixologik va taktik-texnik tayyorgarlik turlarini uyg'unlashtirish, yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuv asosida mashg'ulotlar olib borish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Jahonda yosh karatechilarni yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, harakat faolligini oshirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida yosh karatechilarning jismoniy tayyorgarliklarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham aynan shu yosh bo'yicha belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlardan past darajada qayd etilmoqda. Shu bois, yosh karatechilarning individual xususiyatlariga asoslanib maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik vositalarini mashg'ulot yuklamalarida taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni fiziologik tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq yosh karatechilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirishda jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlash asosida ilmiy ishlar olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda turli xil yakka kurash turlarini ommalashtirish borasida, aholining turli qatlamlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Karate (WKF) sport turi yoshlar orasida katta ommalashuv bilan foydalanayotganligini hisobga olib uni yanada rivojlantirish, karate bo'yicha zamonaviy sport obyektlari va inshootlarini barpo etish, shuningdek, milliy terma jamoalarini nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash"¹ borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktab yoshidagi bolalarda karatening "Kata" yo'nalishiga qiziqish uyg'otish orqali nafas olish, xotira va konsentratsiyani saqlash, vestibulyar apparatni chiniqtirish kabi sog'lomlashtirish, joylarda karate sport turini rivojlantirish va muvofiqlashtirish, uslubiy qo'llab-quvvatlash va monitoring qilishda sportchilar yetakchi o'rinlarni olishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrda PQ-356-son "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2020-yil 3-noyabrdagi PF-6099-son “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2022-yil 20-iyundagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-356-son “Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlari hamda sohaga doir bir qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” bilan bogʻliq ustuvor yoʻnalishlar doirasida amalga oshirilgan.

Muammoni oʻrganilganlik darajasi. Respublikamizda 13-14 yoshli karatechilarning koʻp yillik tayyorgarligining metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish boʻyicha G.B.Abdurasulova, N.Nuritdinova, M.S.Axmatovlar Sh.A.Arslonov, B.Sh.Raxmatov A.A.Kochkarov, G.K.Rajabov² sportchilarning mashgʻulotlarini rejalashtirish, jismoniy tayyorgarlik vositalaridan foydalanish hamda texnik tayyorgarlikni oshirish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlari olimlari Yu.L.Orlov, Yu.A.Smirnov, V.V.Gluxov, A.I.Petkevich, D.A.Sargosyan, Yu.D.Ovchinnikov, N.Yu.Dzyuba, S.V.Stepanov, F.Yu.Xudiyevlar tomonidan karate sport turi boʻyicha hujumkor texnik harakatlarga oʻrgatish, jismoniy mashqlarni vaqt boʻyicha taqsimlash hamda ularni turli pedagogik shakllarda amalga oshirishga doir metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarda karate sport turining koordinatsion murakkab texnik harakatlar bilan ajralib turuvchi, tezkor-kuch va dinamik imkoniyatlarni talab etuvchi siklik sport turi sifatida shakllanishi amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Xorijiy davlatlar yetakchi mutaxassislari B.M. Jong, V.Camomilla, V.Camomilla, P.Sbriccoli, S.Benedini, P.Campbell, A.Lisowska, M.B.Ogurkowska, J.Gabryelski³ karate bilan shugʻullanuvchilarning tezkor-kuch, egiluvchanlik sifatlarini

² Abdurasulova G.B. Nuritdinova Sh.N. M.S.Axmatov. Taekvondo nazariyasi va uslubiyati / darslik. Ilm texnika axborotpress nashryoti, Chirchiq, 2018. – 360 b.; Sh.A.Arslonov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Karate / oʻquv qoʻllanma. – “Muhir Press” nashriyoti, Chirchiq, 2022. – 144 b.; Raxmatov B.Sh. Ёш таэквондочиларда мувозанат сақлаш турғунлиги ва ҳаракат аниқлигини вестибулосоматик машқлар ёрдамида ривожлантириш самарадорлиги. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Чирчиқ – 2022. – 138 б. Kochkarov A.A. Технология профессиональной практической подготовки курсантов образовательных учреждений УВД Республики Узбекистан. Фан доктори (DSc) дисс. Ч, 2022-1906. Ражабов Г.К. Малакали боксчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мусобақа фаолияти натижадорлигини шакллантириш Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Чирчиқ – 2022. – 189 б

³ B.M. Jong Camomilla, V. Comparison of two variants of a Kata technique (Unsu): The neuromechanical point of view / V. Camomilla, P. Sbriccoli et al. // Journal of Sports Science and Medicine. – 2009. – V. 8. – pp. 29-35.; Benedini, S. Metabolic and Hormonal Responses to a Single Session of Kumite (Free Non-Contact Fight) and Kata (Highly Ritualized Fight) in Karate Athletes / Benedini S. // Sport Sci Health. – 2012. – № 12. – Pp. 81–85.; Campbell, P. The Five Katas of Yagi Meitoku / P. Campbell // Karate Kata For the Transmission of High-Level Combative Skills. Vol.2. An Antology of Articles from the Journal of Asian Martial Arts. – Santa Fe: Via Media Publishing Company, 2015. – pp.32-43.; Lisowska, A. Analysis of the occurrence of musculoskeletal pain in Shotokan karate kata athletes / Lisowska A., M.B. Ogurkowska, J. Gabryelski // Journal of Combat Sports and Martial Arts. – 2017. – № 2 (2). – Vol. 8. – pp. 77- 82.

rivojlantirish, yosh chegaralarini inobatga olish, maktabgacha ta'lim, o'smir va yoshlarning shug'ullanishi salomatlik darajasini yaxshilashi hamda musobaqalarda yuqori sport natijalariga erishish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha turli takliflar berib o'tishgan.

Xulosa qilib aytganda, karate mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish sportchilarni funksional hamda texnik-taktik tayyorgarligini oshirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar bilan asoslangan. Biroq yosh sportchilarning yillik mashg'ulotlarini rejalashtirishda kata va kumite bo'yicha texnik elementlarni o'rgatishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining V.11/3. "Sport maktablari yoshidagi bolalarni sport turlariga yo'naltirishning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quv mashg'ulot bosqichidagi yosh karatechilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini optimal rejalashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh karatechilar mashg'ulotlarini tizimli rejalashtirish uchun texnik-taktik tayyorgarlik turlarini oshirishga qaratilgan kata va kumite mashqlarini oylar kesimida optimal taqsimlash;

yosh karatechilarni tayyorlash asosida karatechilar chidamliligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

o'quv mashq guruhidagi yosh karatechilarni mashg'ulot jarayonini tashkil etishda mashg'ulotlar uslubiyatini takomillashtirish;

yosh karatechilar mashg'ulotlarini tashkil etish uchun murakkab kihon elementlarini bajarishda dachi vadzada oyoqlar orasiga yuk bog'lab zuki vadzada zarbalarini tezlikka ixtisoslashgan kata mashqlarini bajarish vaqtida nafas ritmini xis qilishga qaratilgan usullaridan foydalanish dasturini ishlab chiqish

Tadqiqotning obyekti sifatida sport maktablaridagi yosh karatechilarning karate mashg'ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini yosh karatechilarni yillik mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish uslubiyatini tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, anketa so'rovnoma, pedagogik testlash, antropometriya, hamda matematik-statistik kabi usulblardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh karatechilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini tizimli rejalashtirish maqsadida tayyorgarlik turlariga kata va kumite yo'nalishining raqibsiz holda bajariladigan, qat'iy ketma-ketlikda tashkil etilgan texnik harakatlar majmuasi hamda 52 haftalik harakatlar aniqligini oshirishga qaratilgan mashg'ulot rejasini davlat dasturiga moslashtirgan holda optimal taqsimlash hisobiga murakkab texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

o'quv mashg'ulot bosqichidagi yosh karatechilarning musobaqa faoliyatiga zaxira sportchilarini tayyorlash uchun individual xususiyatlarini inobatga olgan holda bellashuvdagi chidamkorlik sifatlarini oshirish qaratilgan to'rt blokli (natijadorlik,

pedagogik, diagnostik va nazorat) model takomillashtirish hisobiga texnik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

o'quv mashq guruhidagi yosh karatechilarning texnik harakatlarini bajarish samaradorligi oshirish maqsadida klassifikatsiya bo'yicha elementlar, harakat vazifalari, bajarish usullari, ta'sir yo'nalishi inobatga olgan holda imitatsiya harakatlarini taktik strategiyalar bilan muvofiqlikda bajarish hisobiga maxsus jismoniy mashqlarni bajarish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

yosh karatechilariga mashg'ulot jarayonlarida murakkab kihon elementlarini samarali o'rgatish maqsadida tezlikka ixtisoslashgan dachi vadza, zuki vadzada zarbalarini oyoqlar orasiga yuk bog'lab, nafas ritmini his qilishga qaratilgan usullaridan foydalanish dasturidan foydalanish hisobiga kumite texnik elementlarini o'zlashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yosh karatechilarning funksional, jismoniy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari asosida yillik karate mashg'ulotlarini rejalashtirish uslubiyati ishlab chiqilgan;

yosh karatechilarni harakat faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasini qo'llash orqali karatechilarning jismoniy rivojlanish darajasini yuqori sifatga ko'tarishga erishilgan;

karate sport turi bo'yicha musobaqalarda yuqori natijaga erishish imkoniyati o'rganilib, karate mashg'ulotlariga mo'ljallangan yillik tayyorgarlik rejasi ishlab chiqilgan;

yosh karatechilarning jismoniy va funksional tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatadigan vosita va usullarni qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan;

mashg'ulot va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish muammosining ustuvor jihatlarini tizimli tahlil qilish va umumlashtirish asosida maxsus jismoniy tayyorgarlikni tavsiflovchi, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ko'maklashadigan turli intensivlikdagi ilmiy asoslangan jismoniy mashqlar komplekslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy qoidalarning chuqur nazariy asoslanib berilishi va tadqiqot apparati, tadqiqot usullarining yuqori ishonchliligi, pedagogik eksperimentlarning maqbul darajada davomiyligi va hajmi, eng ma'qul informatsion metodlar va ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlanishi, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlab chiqilishi va tahlil qilishning to'g'riligi tadqiqot natijalari matematik-statistik usullari bilan qayta ishlanganligi keltirilgan formulalar bo'yicha korrelyatsion tahlildan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar natijasida erishilgan ilmiy natijalari amaliyot oldida keng miqyosidagi izlanishlarni nafaqat yosh karatechilarni tizimli tayyorlashda, balki ko'p yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar karate sport turi bo'yicha yosh karatechilarning o'quv mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish va o'tkazish samaradorligining ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, karate sport turida mavjud ashbarai holatida harakatlanishni rivojlantirishga xos maxsus mashqlar majmui ishlab chiqildi, ular jismoniy qobiliyat xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, tezkor-kuch va egiluvchanlik kabi sifatlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatish

bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. O'quv mashg'ulot bosqichidagi yosh karatechilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini optimal rejalashtirish bo'yicha o'tkazilgan joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalari asosida:

yosh karatechilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini tizimli rejalashtirish maqsadida tayyorgarlik turlariga kata va kumite yo'nalishining raqibsiz holda bajariladigan, qat'iy ketma-ketlikda tashkil etilgan texnik harakatlar majmuasi hamda 52 haftalik harakatlar aniqligini oshirish qaratilgan mashg'ulot rejasini davlat dasturiga moslashtirgan holda optimal taqsimlash bo'yicha takliflar Sirdaryo viloyati Shirin shahar sport maktabi karate mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 4-sentabrdagi 01-09/4199-son ma'lumotnomasi). Natijada, sportchilarining texnik tayyorgarligi umumiy hisobda 13,5 % ga yaxshilangan;

o'quv mashg'ulot bosqichidagi yosh karatechilarning musobaqa faoliyatiga zaxira sportchilarini tayyorlash uchun individual xususiyatlarini inobatga olgan holda bellashuvdagi chidamkorlik sifatlarini oshirish qaratilgan to'rt blokli (natijadorlik, pedagogik, diagnostik va nazorat) model takomillashtirish bo'yicha takliflar Nukus shahar 1-sonli sport maktabi karate mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 4-sentabrdagi 01-09/4199-son ma'lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi sportchilarining umumiy chidamlilik sifati 14,2 % ga yaxshilangan;

o'quv mashg'ulot guruhidagi yosh karatechilarning texnik harakatlarini bajarish samaradorligi oshirish maqsadida klasifikatsiya bo'yicha elementlar, harakat vazifalari, bajarish usullari, ta'sir yo'nalishi inobatga olgan holda imitatsiya harakatlarini taktik strategiyalar bilan muvofiqlikda bajarish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus shahar Respublika yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi karate mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 4-sentabrdagi 01-09/4199-son ma'lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi sportchilarining taktik tayyorgarligi umumiy hisobda 10,1 % ga yaxshilangan;

yosh karatechilariga mashg'ulot jarayonlarida murakkab kihon elementlarini samarali o'rgatish maqsadida tezlikka ixtisoslashgan dachi vadda, zuki vadda zarbalarini oyoqlar orasiga yuk bog'lab, nafas ritmini his qilishga qaratilgan usullaridan foydalanish dasturidan foydalanish bo'yicha takliflar Urganch shahar Yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi karate mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil

4-sentabrdagi 01-09/4199-son ma'lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi sportchilarining Gyaku zuki (20 soniya marta) mashqini bajarish ko'rsatkichi tadqiqotdan oldin 13,30 marta aniqlangan bo'lsa tadqiqotdan keyin 16,15 marta natijaga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy maqolalar va tezislari chop etilgan bo'lib, jumladan 3 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, xususan (2 ta

respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kompyuter matnining 127 sahifasida keltirilgan bo'lib, kirish, to'rtta bob, xulosalar tashkil topgan 5 ta jadval, 6 ta rasmni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yosh karatechilarni tayyorlashda mashg'ulotlarni rejalashtirish samaradorligi”** deb nomlangan birinchi bobida sport maktablari uchun namunaviy dasturlarni tahlil qilish, yosh karatechilarni jismoniy va psixomotor rivojlanishi xususiyatlari, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishning davrlari, karatechilarning texnik-taktik tayyorgarlik xususiyatlari, o'quv mashq bosqichida yosh karatechilarning tayyorgarlik turlarini kompleks nazorat qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

Karate mashg'ulotlarida oyoq harakatlari yani zarbalarni amalga oshirishda yettita usullarni qo'llash musobaqa jarayonida yuqori natijaga erishish imkoniyatini oshirishni ta'kidlashgan. Tayyorgarlikning dastlabki bosqichida mashg'ulotning asosiy vazifalari quyidagicha belgilangan. Jumladan, salomatlikni mustahkamlash va tanani mustahkamlash, har tomonlama jismoniy rivojlanish, karatega qiziqishni shakllantirish, raqibni “ko'rish” va uning aniq harakatlariga javob berish qobiliyati, “jangovor” xarakterga ega bo'lgan sportchini tarbiyalash, chidamlilik qobiliyati, muayyan fazilatlarni rivojlantirish, texnik elementlar bilan tanishish, axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalash, musobaqalarda ishtirok etishning birinchi tajribasini olish, yoshlar standartlariga muvofiqligi, karate bo'yicha keyingi mashg'ulotlarga doimiy qiziqish uyg'otish, bolalar va o'smirlarni imkon qadar ko'proq ularning shaxsini shakllantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tizimli sport mashg'ulotlariga jalb etishni ilmiy asoslab berishgan (I.V.Brizgalov, A.M. Gorbilyov, S.M.Ashkinazi).

Zamonaviy karate-do sport turi ko'p bosqichli tizim sifatida qabul qilinishi lozim. Uning tarkibiy darajalarining har biri individual tuzilishga va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Past darajalar sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi asosida shakllangan sog'lomlashtiruvchi yo'nalish bilan belgilanadi. Jismoniy tayyorgarlik darajasi oshgani sayin, murakkablik, shuningdek, karate mashg'ulotlari optimallashtirib sport musobaqalarida natijalar o'sishini ilmiy asoslab bergan. Ushbu tizimning eng yuqori darajasi, o'z navbatida, karatechilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun juda muhim bo'lgan organizmning funksional zaxiralarini oshirish uchun sport mashg'ulotlari tamoyillari asosida qurilishini tahlil qilishgan (Sh.Arslonov,

U.Alimov).

Dissertatsiya ishining “**Tadqiqot usullari va uni tashkil etish**” deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik tajribani o‘tkazish mobaynida qo‘llanilgan ilmiy tadqiqot uslublarining tanlab olinishi, ularning ketma-ketligi bayon qilingan bo‘lib, ular tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ularni hal etish jarayoniga mosligi asoslab berilgan. Tadqiqot uch bosqichda o‘tkazildi:


Birinchi bosqichda (2023-yil sentyabr – 2023-yil dekabr) ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili o‘tkazildi. Shu bilan birga tadqiqotning maqsadi, vazifalari va usullari aniqlandi. Mavzuga oid me‘yoriy hujjatlar, konferensiyalardagi seminar va ma‘ruza materiallari, tadqiqot ishining muammosi bo‘yicha dissertatsiyalar o‘rganildi.

Ikkinchi bosqichda (2024- yil yanvar – 2024-yil mart) sport ta‘lim muassasasida karate elementlarini qo‘shma harakat faoliyatiga kiritish modelining samaradorligini aniqlash uchun pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tadqiqot Nukus shahridagi 1-sonli sport maktabi Karate bazasida o‘tkazilib, nazorat va tajriba guruhlar tuzilib, ularning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi sinovdan o‘tkazildi. Pedagogik eksperimentning davomiyligi 12 oyni tashkil etdi, keyin takroriy test o‘tkazildi. Tajribada 13-14 yoshli 40 nafar o‘g‘il qizlar ishtirok etdi. Nazorat va tajriba guruhlarda 20 nafar bola bor edi.

Uchinchi bosqichda (2024-yil mart - 2024-yil may) olingan natijalar tahlil qilindi, xulosalar chiqarildi.

Dissertatsiyaning “**Yosh karatechilarni yillik mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirish uslubiyatini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida, tadqiqotimiz davomida yosh karatechilarning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy, texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarni o‘rganish va tahlil qilish bilan birga koshiki karate musobaqa dasturlarida qabul qilingan texnik elementlarni amalga oshirish xususiyatlarini o‘rgandik. Dasturga asosan kumite (shartli jang), kata (rasmiy komplekslar), bunkay (shartli duel) kabi texnik elementlaridan tadqiqotimiz davomida foydalanildi. Ushbu dastur yosh karatechilarda karate texnik elementlarining shakllantirishning eng samarali ekanligi aniqlash uslubiyati keng yoritib berilgan.


Biz yosh karatechilarni karate sport turiga saralash hamda ularni musobaqalarga tayyorlash maqsadida tajribadan oldin antropometrik ko‘rsatkichlarini aniqlashga e‘tibor qaratdik va olingan natijalarni quyidagi (1-rasmga qarang)



1-rasm. Tadqiqot boshi tajriba va nazorat guruhlarining antropometrik ko‘rsatkichlari

Jismoniy tayyorgarlik mashqlaridan keyin albatta karatechilar organizmida bir qancha o'zgarishlarni yoki antropometrik ko'rsatkichlarni – bo'y, vazni, ko'krak qafasi hajmi nafas olganda va chiqarganda, tinch holatidagi holatini aniqladik. Bu esa karate sporti bilan shug'illanuvchilar uchun muhim hisoblanadi. Sababi bo'y o'sganda oyoq va qo'llar uzunligiga erishamiz. Bunda kata va kumite bajarilganda har bir mashq aniq va chiroyli ko'rinadi asosan kata bajarilganda tajriba va nazorat guruhi sportchilarida tadqiqot boshida antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha bo'y, vazn, ko'krak qafasi hajmi nafas olganda va chiqargan vaqtdagi ko'rsatkichlari ustida olib borilgan. Tadqiqot boshida tajriba guruhi sportchilari bo'y 167 sm, nazorat guruhi sportchilarida esa 1,68 sm ni tashkil etdi. Tajriba guruhi sportchilari vazni 61,2 kg, nazorat guruhi sportchilarida vazni esa 62,9 kg ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhi sportchilarida ko'krak qafasi hajmi esa 81,5 sm, nazorat guruhi sportchilarida ko'krak qafasi hajmi 79,95 sm ni tashkil etdi. Tajriba guruhida ko'krak qafasi nafas olgandagi hajmi 87,10 sm, nazorat guruhi sportchilarida ko'krak qafasi nafas olgandagi hajmi 84,65 sm ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida ko'krak qafasi aylanasi nafas chiqargandagi 81,21 sm tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida esa ko'krak qafasi nafas chiqargandagi hajmi esa 79,32 sm ni tashkil qildi.

Barcha sport turlari kabi jismoniy tayyorgarlikka e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda yosh karatechilarni dastlabki jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot oldi yosh karatechilarni jismoniy rivojlanganli ko'rsatkichlarini aniqlash bilan birga ularni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashga e'tibor qaratdik. Tajriba va nazorat guruhiga jalb etilgan yosh karatechilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlar quyidagi testlar orqali aniqlashga imkon berdi (2-rasmga qarang)



2-rasm. Tadqiqot boshi tajriba va nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Tajriba va nazorat guruhi sportchilarining tadqiqot davomida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'tqazilgan tadqiqotlar quyidagilar bo'yicha olib borildi. Unga ko'ra tajriba guruhi karatechilarning 30 metrga yugurish bo'yicha ko'rsatkichlari 5,58 soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilarida esa 30 metrga yugurish 5,73 soniya natijaga erishdi. Tajriba guruhi sportchilarida yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish 18,8 marta bajarishgan bo'lsa, nazorat guruhi sportchilarida esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 16,65 martani tashkil etdi. Tajriba guruhi sportchilarida turgan joydan uzunlikka sakrash 195,35 sm. ekanligi kuzatildi, nazorat guruhi sportchilarida turgan joydan uzunlikka sakrash 188,85 sm.ni tashkil qildi. Karatechilarning maxsus mashqlaridan biri hisoblangan Gyaku zuki bo'yicha ko'rsatkichlari tajriba guruhi sportchilarida 29,30 martani, nazorat guruhi sportchilarida 24,80 marta bajarildi. Tajriba guruhida mavashi geri mashqida tadqiqot oldi o'rtacha 20,90 marta, nazorat guruhi sportchilarida mavashi geri 16,65 marta deb qayd etildi. Tajriba guruhi sportchilarida Ura mavashi 20,55 marta bular 20 sekundta, nazorat guruhida esa ura mavashi mashqi 17,50 marta bajarildi. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin ekanligi o'tkazilgan tadqiqot oldi olingan nazorat testlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Murabbiy katta va ulkan kasbiy sport tajribalardan foydalanadi, bu sport mahoratini oshirishning har bir yangi bosqichida sportchilarning organizmiga ularning funksional imkoniyatlari chegarasiga yaqin bo'lgan talablarni qo'yishni ta'minlaydi. Bu esa adaptatsiya reaksiyalarning samarali borishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuklama yildan-yilga asta-sekin o'sib borishi, eng yuqori yutuqlarga tayyorgarlik bosqichida maksimal darajaga yetishi kerak. Mashg'ulot jarayoni butun kalendar yil davomida yillik sport mashg'ulotlari rejasiga muvofiq amalga oshiriladi va 52 haftaga mo'ljallangan. Yiliga o'rtacha har hafta 75–81 soatlik yuklama ko'zda tutilgan bo'lib, umumiy yillik hajm 936 soatni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich yil davomida muntazam va barqaror yuklama usulida tayyorgarlik olib borilayotganini bildiradi. Dam olish kunlarida o'quv-mashg'ulot yuklamasini rejalashtirish sog'lomlashtirish oromgohlari asosida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonining mazmuni sport maktabining murabbiylar kengashi tomonidan dasturga muvofiq belgilanadi, unda mashg'ulotlarning mazmuni, hajmi, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Sportchilarning mashg'ulot o'tkazishlari uchun sharoit yaratish uchun javobgarlik sport maktabining mansabdor shaxslari zimmasiga yuklanadi. Mashg'ulotlar jadvali yosh xususiyatlarini va belgilangan sanitariya-gigiyena me'yorlarini hisobga olgan holda murabbiyning taklifiga binoan rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

Mashg'ulot sharoitlari va tashkil etilishiga, shuningdek, sport musobaqalari shartlariga qarab, mashg'ulotlar sport mashg'ulotlaridan o'tayotgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash uchun zarur xavfsizlik choralariga majburiy rioya qilish asosida amalga oshiriladi.


Sport bilan shug'ullanadigan shaxslarga tibbiy, yosh va psixofizik talablar. Sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida karate mashg'ulotlari va sport musobaqalarida qatnashish uchun tegishli tibbiy ma'lumotnoma bo'lishi kerak. Buning uchun yiliga ikki marta sport mashg'ulotlaridan o'tayotgan shaxslarni dispanserda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, musobaqalarda ishtirok etishdan oldin, kasallik yoki jarohatlardan keyin qo'shimcha tibbiy ko'rikdan o'tkazish kerak.(1-jadvalga qarang)

**Karate sport turida o'quv mashg'ulot guruhi (3-yil) uchun 52 haftalik
o'quv – mashg'ulot rejasi**

T/r	Tayyorgarlik turlari (soatlarda)	Tayyorgarlik bosqichlari													Jami soatlar
		O'quv mashg'ulot guruhi (3-yil)													
		Oylar													
		IX	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII		
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	17	17	17	18	17	17	17	17	17	17	35	35	241	
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik(kata va kumite maxsus mashqlarini qisman variativ qo'llash)	20	20	20	20	21	20	20	20	21	20	20	20	242	
3	Texnik-taktik tayyorgarlik(kata va kumite texnik-mashqlarini qisman variativ qo'llash)	29	38	36	33	32	41	32	32	31	34	18	17	373	
4	Psixologik tayyorgarlik	1	2	2	2	2	2	2	2	2	1			18	
5	Sport musobaqalarida qatnashish, murabbiy va hakam amaliyoti	2	2	2	2	2	2	3	2	3	3	2	3	28	
6	O'tkazish nazorat sinovlari	3			2				2				3	10	
7	Hakam va yo'riqchi amaliyoti	Soat setkasidan tashqarida													
8	Tiklanish tadbirlari	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	24	
9	Bir haftalik yuklama	75	81	75	81	78	75	78	78	78	78	78	81	936	

Biz tomonimizdan tadqiqotlar davomida o'quv-mashq jarayonini individuallashtirish asosida yosh karatechilarning chidamliligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi. Modelni tadqiqot guruhidagi yosh karatechilarning mashg'ulotlar jarayonida qo'lladik. Maxoratli karatechilar zaxirasini tayyorlashda mashg'ulotlarda asosan individual yondashishga e'tibor qaratdik. Modelimiz to'rtta blokdan iborat.

Birinchi blokda maxsus chidamlilik darajasi, salomatligini mustahkamlash, keng ko‘lamdagi vosita va usullarni o‘zlashtirish, karatening asosiy texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirib uni natijadorligini oshirishga etibor qaratildi. Ikkinchi pedagogik blokda esa dastlabki tayyorgarlikning turli bosqichlarida chidamlilikni rivojlantirishni individuallashtirish metodologiyasi takomillashtirishga e‘tibor qaratildi. (3-rasmga qarang)



3-rasm. O‘quv-mashq jarayonini individuallashtirish asosida yosh karatechilarning chidamliligini takomillashtirish modeli

Uchinchi blokda esa individuallashtirish mezonlari aniqlandi. Oxirgi blokda yosh karatechilar mashg‘ulotlari nazorat qilindi hamda vosita usullar shug‘ullanuvchilarni individual xususiyatiga qarab korreksiyalandi. Diagnostika blokining tarkibiy qismlarini tahlil qilish murabbiyga “guruhni individuallashtirish” usulidan foydalangan holda chaqqonlikni rivojlantirish vazifalarini bajarish uchun asosiy ma’lumot beradi. Taklif etilayotgan modeldagi asosiy komponent pedagogik blokdir. Darsning yo‘nalishiga yoki aniq vazifalarga qarab, har yili tayyorgarlikning turli bosqichlarida maxsus chidamlilikni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning umumiy poydevorining muhim qismi sifatida qat’iyatlikni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish amalga oshirildi. Modeldagi eng yuqori ierarxik darajani jismoniy tayyorgarlikning eng umumiy integral ko‘rsatkichi sifatida samarali blok egallaydi. 13-

14 yoshli karatechilar uchun musobaqalarda eng yuqori natijalarni ko'rsatish uzoq muddatli xarakterga ega va asosiy tayyorgarlikning samaradorligi birinchi o'rinda turadi. Model bloklari faoliyatining ishlashi chidamlilikni rivojlantirishni individuallashtirish jarayonini nazorat qilish va tuzatishni ta'minlaydi. Modelni amalga oshirish maxsus chidamlilik darajasini shakllantirish, harakat ko'nikmalarning keng samarasini o'zlashtirish, karate texnikasi va taktikasini o'zlashtirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan model asosida yosh karatechi tanasining har tomonlama funksional rivojlanishi uchun asos sifatida mashg'ulot va musobaqa jarayonini individuallashtirishga asoslangan chidamlilikni rivojlantirish metodologiyasi ishlab takomillashtirildi. O'quv yilida va unga kiritilgan har bir makrosiklni rejalashtirishda biz maqsadli yo'nalishni, tarkibini, tayyorgarlikning turli bosqichlarida chidamlilikni rivojlantirish ketma-ketligini, nazoratni tekshirish vaqtini, testlar, musobaqalar, tibbiy ko'riklar va rehabilitatsiya tadbirlarini rejalashtirishga alohida e'tibor qaratdik. Birinchi o'quv yilining dastlabki tayyorgarlik bosqichida e'tibor tayyorgarlik davrini umumiy chidamlilikni oshirish, yuqori umumiy jismoniy tayyorgarlikka erishish va barqaror texnik bazani shakllantirishga qaratdik. Tayyorgarlik davrini ikki bosqichga ajratdik: umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik bosqichlariga ajratgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirdik. Umumiy tayyorgarlik bosqichida, aerobik qobiliyatlarni kuchaytirish, maxsus jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishdan tashqari, uzoq vaqt davomida bu tayyorgarlikni saqlab qolish qobiliyatini mustahkamlash va nafas olish jarayonlarining rivojlanish tezligini maksimal qiymatlarga oshirish, shuningdek, asosiy vosita ko'nikmalarini takomillashtirish vazifalarini belgilab oldik.

Texnikani o'rganish va tanani keyingi yuqori maxsus yuklamalarga tayyorlashga e'tibor qaratdik. Bunga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan siklik sport turlaridan katta miqdordagi mashqlarni bajarish orqali erishildi. Bosqichning davomiyligi 4,0-4,5 bellashuvni tashkil etdi. Tadqiqotimiz davomida yosh karatechilarni chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish modelini mashg'ulot jarayonida qo'llash orqali ularning umumiy va maxsus tayyorgarligi rivojlanishi, chidamlilik sifatini yaxshilashga hamda texnik-taktik tayyorgarlik darajalarini yaxshilanishiga erishildi.

Karate sport bilan shug'ullanish odatda sportchining yosh jihatidan o'sishidagi bir qator davrlarni o'z ichiga oladi. Bunda mashg'ulotning mazmuni va tuzilishi, yosh xususiyatlari va sportda kamolotga erishishda asosiy maqsad hisoblanadi. Yosh karatechilar tayyorgarlik tizimining dastlabki holatlaridan biri – yuqori natijalarga erishishning optimal yoshga ko'rsatmasi, yosh sportchilarni beqaror tezkor muvaffaqiyatli natijalarini emas, balki optimal yosh davrigacha ularning sport takomillashuvini bir tekis rivojlanishini ta'minlovchi tayyorgarlik shakllari, vositalari va uslublarini izlab topishni talab qiladi. Karate sportida yuklamalar sportchi tomonidan mashg'ulot jarayonida turli xil kattalikdagi yuklamalarni va vositalarni murakkabligiga ko'ra turli shiddat guruhlarga bo'linadi. Jismoniy mashqlar zamirida mushak qisqarishlari yotadi, mushaklar inson vaznining 3-4 qismini tashkil etadi. Mushaklar qisqarishi energiyasi ishlayotgan mushakda kislorod va turli oziqlantiruvchi moddalar oqimining ko'payishi hisobiga hosil bo'ladi, yurak va o'pka faoliyati yaxshilanadi (2-jadvalga qarang).

O'quv mashq guruhidagi yosh karatechilarni texnik elementlardan foydalanish dastur

Texnik elementlar	Harakat vazifalari	Bajarish usullari	Ta'sir yo'nalishi	O'quv mashg'ulot
Dachi-wadza (Turish texnikasi)	Texnik harakat elementlarini mashg'ulot jarayoni va musobaqa faoliyatida bajarish	Jihoz yordamida, buyruq asosida Guruhi bellashuv	Harakat koordinatsiyasi va tezkor qaror qabul qilishni tarbiyalash	Turish holatlari va qadamlar aro texnik elementlarni rivojlantirish va takomillashtirish
Zuki-wadza Uti-Wadza (Hujum texnikasi)	Qo'l zarbasi	Takroriy usul Uzliksiz buyruq asosida Musobaqa	tezkor-kuch va maxsus chidamkorlik	Maxsus mashqlarni immitatsiya qilish va predmetlar orqali bajarish
	Oyoq zarbasi	Uzliksiz Jihoz bilan Yuqori intensivlikda	Harakat koordinatsiyasi, tezkor-kuch va maxsus chidamkorlik	
Uke-wadza (Himoya texnikasi)	Qo'l bilan blok qo'yish	Shartli belgilar asosida Uzliksiz	tezkor qaror qabul qilish tarbiyalash va tezkor reaksiyani tarbiyalash	Juflikda blok, yuzma-yuz, to'siqlar qo'yish
Texnik elementlarni boshqa sport turi vositalari orqali rivojlantirish	Akrobatik mashqlar, estafeta yugurish, o'z-o'zini himoya qilish	Uzliksiz Musobaqa	Harakat koordinatsiyasi, tezkor – kuch qobiliyati, harakat tezligini tarbiyalash	Texnik elementlarni tez va sifatli takrorlash
	Hujum va himoyadagi kombinatsion mashqlar	Uzliksiz buyruq asosida	Harakat koordinatsion qobiliyatlari va maxsus chidamkorlikni tarbiyalash	Bir texnik harakatdan ikkinchi texnik harakatga o'tish va moslashish

Karatechilarni jismoniy mashqlarning ratsional texnikasini bajarishga uzluksiz o'rgatish uchun turli xil ko'nikma va malakalarning zaxiralarini yaratish, intilish zarur, chunki navbatda sport texnikasini muvaffaqiyatli takomillashtirish uchun, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va harakat malakalarini shakllantirish jarayonlarining to'g'ri o'zaro faoliyat uchun barcha sharoitlarini ta'minlash kerak. Yosh karatechilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda yuklamalarni rejalashtirishda sportda qabul qilingan umumiy tamoyillardan foydalanish zarur. Jumladan, ketma-ketlik, asta-sekinlik, mashg'ulot yuklamalarining sikllilik, muntazamlik yuklamalar dinamikasining to'liqsimonligi shular jumlasidandir.

Karatechilarda yuqori asabiy faoliyatning tipologik xususiyatlari paydo bo'la boshlaydi, xarakter shakllanadi, shaxsiy motivlar va qiziqishlar ochiladi, ammo ular juda beqaror namoyon bo'ladi. Harakat funktsiyasi funksional birlashtirilgan tizimning turli miya qismlarining birgalikdagi ishining natijasidir. Ulardan birortasining yo'qolishi yoki disfunktsiyasi butun tizimning ishlashini buzishga olib keladi. Tajriba guruhida modulni amalga oshirish dasturi bo'yicha darsning asosiy qismida tashkil etdik (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Yosh karatechilarni tayyorlash dasturi

Shartlar	An'anaviy jismoniy tarbiya darsi	Karate elementlari bilan darslar
Vazifalar	O'rgatish, takrorlash, birlashtirish, texnik mahoratini oshirish	Kihon mashqlari Hiyan va Tekki katar Gohon kumite, Sanbon kumite, Ippon kumite, Shiay kumite yuqorida keltirilgan karatening texnik taktik mashqlarini takroriy bajarish orqali o'zlashtirish
Davomiyligi	30 daqiqa	Umumiy qabul qilingan dastur bo'yicha 20 daqiqa + "yosh bolalar uchun karate" dasturi bo'yicha 10 daqiqa
Shakl	Yosh karatechilar uchun tashkil etilgan qo'shma harakat faoliyati - ustunda, shaklda, tatami va ochiq havodagi o'yinlarda.	Panjalar(lapa) va makivaralarga qarshi hujumlarni mashq qilish uchun juftlik bilan ishlash + kihon va kata elementlari + nafas olish mashqlari va suhbatlar, dam olish mashqlari.
Usullari	Umumiy pedagogik, amaliy	Umumiy pedagogik, sport mashg'ulotlari metodikasi.
Turli jihozlardan foydalanish	To'plar, arg'amchi, halqalar, gimnastika tayoqlari, arqonlar	Karate qo'g'irchoqlari, panjalar(lapa), =to'ldirma qoplar, Nogare ura

yosh karatechilarning jismoniy sifatlarini, rivojlantirish vositasi sifatida karate elementlarini darsning asosiy qismiga kiritish orqali mashg'ulotlarni noan'anaviy tarzda olib bordik. Karate elementlarini kiritish darsning o'zgaruvchan qismini

o'zgartirish orqali sodir bo'ladi. Harakatning asosiy turlarini - yurish, toqqa chiqish va sakrashni takrorlash va mustahkamlashda biz statik va dinamik pozitsiyalarda bajariladigan karate elementlarini kiritdik. Karate elementlarini umumiy rivojlantiruvchi mashqlar majmuasiga - zarbalar, qarshi hujumlar texnikasiga kiritish orqali biz jang san'ati texnikasini mustahkamlandi va darsning yakuniy va tayyorgarlik qismini an'anaviy tarzda o'tkazdik.

Dasturning asosiy maqsadi: darsga karate elementlarini kiritish orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan. Dasturni amalga oshirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

karate sport turiga qiziqishni rivojlantirish uchun motivatsion shart-sharoitlarni yaratish;

o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil etish;

sportchilarning axloqiy va irodaviy shaxsiy salohiyatini shakllantirishga hissa qo'shish;

jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish; maxsus vositalardan foydalanish;

sportchilarning jismoniy rivojlanishini kuzatish va nazorat qilish.


Tadqiqotimiz davomida yosh karatechilarni tayyorlash dasturidan foydalandik. Dasturga asosan darsning asosiy qismida karate elementlarini o'rgatildi hamda turli sport jixozlaridan foydalanildi. Yosh karatechilarni karate sport turiga tayyorlashda dasturda jismoniy tarbiya darsining vazifalari, shakllari, usullari hamda mashqlar davomiyligiga e'tibor qaratildi. Tadqiqotimizda ushbu dasturdagi karate elementlarini o'zlashtirishi orqali, yosh karatechilarning tezkorlik, egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishga hamda reaksiya, diqqat, obyektini sezish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan yosh karatechilarni tayyorlash dasturini mashg'ulotlarda qo'llash orqali ularning jismoniy rivojlanganlik darajasi 12,5 % ga, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi esa 14,2 % ga yaxshilanishiga erishildi. Kumite mashqlarini oyoq bilan beriladigan zarbaga himoya va hujumni amalga oshirish uchun sparing usullaridan foydalanildi. Himoyachi bu o'rinda javob zarbasini ikki xil usulda bosh sohasiga va tana sohasiga yo'llashi mumkin. Zarba berish orasida tanaffus qilmaslikka harakat qildik. Yosh karatechilar tomonidan bajarilgan bloklar sherigiga og'riq, jarohatlanishiga olib kelmasligi zarur. Oyoq bilan beriladigan to'g'ri zarbaga ketma-ketlikda himoyachi nafaqat zarba berish uchun balki raqibni ham jangga kirish uchun o'ng oyoq bilan oldinga qadam tashlash va chap qo'l blokidan foydalanadi.

